O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JIZZAX VILOYATI HOKIMINING QARORI

2024 - yil 28 - fevral 125-3-0-Q/24 Jizzax viloyati hokimligi

Bozorlar va savdo komplekslarining ma’muriyati tomonidan undirib olinadigan bir martalik yig‘imlar, ijara to‘lovlari va ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun undiriladigan to‘lovlar miqdorlarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-apreldagi “Dehqon bozorlari va savdo komplekslari faoliyatini tashkil etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1326-son qarori (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2010-yil. 17-son. 131-modda, 2012-yil. 52-son. 587-modda, 2017-yil. 23-son. 457-modda) hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi 1993-yil. 9-son. 320-modda) 6- va 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Viloyat Bozorlar va savdo komplekslari uyushmasining “Jizzax viloyatidagi bozorlar va savdo komplekslari ma’muriyati tomonidan undirib olinadigan bir martalik yig‘imlar, ijara to‘lovlari va ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun undiriladigan to‘lovlar miqdorlarini belgilash” to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

2. Quyidagilar:

viloyatdagi bozorlar va savdo komplekslari ma’muriyati tomonidan undirib olinadigan yig‘imlarning miqdori 1-2- ilovalarga muvofiq;

viloyatdagi bozorlar va savdo komplekslarida inventarlarni ijaraga berish va

ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun undiriladigan bir martalik to‘lov miqdorlari 3-ilovaga muvofiq;

bozorlar va savdo komplekslari hududidagi bino, inshoot va boshqa mol-mulkdan hamda bozor infratuzilmasidan foydalanganlik uchun ijara to‘lovlarning miqdorlari 4-ilovaga muvofiq;

viloyatdagi bozorlar va savdo komplekslari hamda dehqon bozorlariga qarashli mol bozori shoxobchalarining ish kunlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Viloyat davlat Soliq boshqarmasi va hududiy davlat Soliq xizmati organlari hamda bozorlar va savdo komplekslari ma’muriyatlari bilan birgalikda:

bozorlar va savdo komplekslaridan tushadigan bir martalik yig‘imlar, ijara to‘lovlari va ko‘rsatiladigan xizmatlar qiymatini belgilangan tartibda to‘liq undirilishini;

yangi tasdiqlangan bir martalik yig‘imlar, ijara to‘lovlari va ko‘rsatiladigan xizmatlar qiymati miqdorlari haqida viloyatdagi barcha bozorlar va savdo komplekslari, sotuvchi va xaridorlar e’tiboriga yetkazilishi, bu haqidagi ma’lumotlarni barcha ko‘rinarli joylarga joylashtirilishi hamda amalda tatbiq etilishi ustidan nazorat o‘rnatilishini ta’minlasinlar.

4. Viloyat davlat Soliq boshqarmasi (B.Toshpo‘latov) va Bozorlar va savdo komplekslari uyushmasi (B.Xusanov)ga:

bir martalik yig‘imlar, ijara to‘lovlari va ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun to‘lovlarning holati bo‘yicha monitoring kuzatuvi yuritish va natijalari yuzasidan viloyat hokimligiga aniq takliflar kiritib borish;

bir martalik yig‘imlar, ijara to‘lovlari va ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun to‘lovlarning yangi miqdorlarini to‘g‘ri qo‘llanilishi hamda to‘liq undirilishi va bozorlar daromadlarining belgilangan qismini mahalliy budjetga o‘z vaqtida o‘tkazilishi ustidan qat’iy nazorat o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

5. Viloyat Bozorlar va savdo komplekslari uyushmasi (B.Xusanov), viloyat hokimligi tomonidan tasdiqlab berilgan daromad olish rejasi prognoz ko‘rsatkichlarini ikki oy davomida ketma-ket bajarilmagan taqdirda tuman (shahar) bozorlar va savdo komplekslari raislari qonun hujjatlariga muvofiq egallab turgan lavozimidan ozod qilinishi belgilab qo‘yilsin va nazoratga olinsin.

6. Ushbu qaror “Jizzax haqiqati” va “Джизакская правда” gazetalarida

e’lon qilinsin hamda tegishli tartibda hokimlikning – www.jizzax.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

7. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan viloyat hokimining 2022-yil 9-martdagi 123-3-0-Q/22-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

8. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

9. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari A.Mustanov zimmasiga yuklatilsin.

Viloyat hokimi **E.Saliyev**

Jizzax viloyat hokimining
2024-yil 28-fevraldagi
125-3-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Viloyatdagi bozorlar va savdo komplekslari ma’muriyati tomonidan undirib olinadigan bir martalik yig‘imlarning miqdorlari

so‘m hisobida

T/r	Mahsulot turlari	O‘lchov birligi	2024-yil olinadigan to‘lovlar				
			Jizzax shahri	G‘allaorol tumani	Do‘stlik, Zarbdor, Zafarobod, Zomin, Mirzacho‘l, Paxtakor, Forish va Sharof Rashidov tumanlari	Baxmal va Yangiobod tumanlari	Arnasoy tumani
1	**Mahsulotlarni savdo o‘rinlarida sotish:**						
1.1.	Mevalar: Ho‘l mevalar: olma, anor, nok, shaftoli, anjir, olxo‘ri, gilos, ko‘k va qizil sulton, o‘rik, uzum, olcha, qulupnay, malina va h.k.	1 o‘rin/kunga	10000	8000	8000	7000	6500
	sitrus va tropik mevalar (apelsin, mandarin, limon, banan, ananas, kivi va h.k.) hamda chet eldan keltirilgan boshqa ho‘l mevalar	1 o‘rin/kunga	14000	9000	9000	8000	7500
1.2.	Quruq mevalar, yong‘oqlar: turshak, bargak, mayiz, yong‘oq, yer yong‘oq, bodom, pistalar, sho‘rdanak va h.k.	1 o‘rin/kunga	17000	10000	10000	9500	9500
1.3.	**Sabzavotlar:** **kartoshka, piyoz, karam, sabzi, sarimsoq piyoz, lavlagi, sholg‘om, bolgar qalampiri, baqlajon, patisson pomidor, bodring va pishirilgan jo‘xori**	1 o‘rin/kunga	8000	7000	6500	5500	5500
	shu jumladan, issiqxonalarda yetishtirilgan pomidor va bodring	1 o‘rin/kunga	11000	9000	8500	7000	6500
1.4.	**Poliz mahsulotlari:** **handalak, qovun, tarvuz, qovoq (6 kv. metrgacha)**	1 o‘rin/kunga	17000	11000	11000	10500	10500
1.5.	Don mahsulotlari: guruch, kungaboqar, yormalar (krupa) bug‘doy, arpa, suli va h.k.	1 o‘rin/kunga	11000	8500	8000	7500	7500
1.6.	Dukkakli mahsulotlar: mosh, loviya, no‘xat va h.k.	1 o‘rin/kunga	11000	9000	8500	7500	7500
1.7.	Sut mahsulotlari: sut, qatiq, qaymoq, smetana, sariyog‘, uy pishlog‘i, suzma va h.k	1 o‘rin/kunga	8000	6000	6000	5500	5500
1.8.	**Tuzlama va boshqa mahsulotlar: karam, bodring, pomidor, koreys salatlari, sabzavot va mevalardan uyda tayyorlangan salatlar**	1 o‘rin/kunga	11000	8500	8000	6500	6500
1.9.	**Ziravor va dorivorlar:** **(zira, murch, qalampir va h.k.)**	1 o‘rin/kunga	10000	8500	8000	6500	6000
1.10.	**Ko‘katlar: (shu jumladan issiqxonada yetishtirilganlar)**	1 o‘rin/kunga	7000	5000	5000	4500	4500
1.11.	Tuxum	1 o‘rin/kunga	9000	6000	6000	5500	5500
1.12.	**Gullar va ko‘chatlar (6 kv. metrgacha)**						
	Mevali, manzarali daraxt ko‘chatlari va gullar	1 o‘rin/kunga	13000	10500	10000	8000	7500
	Ko‘chatlar (pomidor, bulg‘or, qalampiri, baqlajon, karam, gul va h.k.)	1 o‘rin/kunga	8000	6000	6000	5500	5500
1.13.	**Non mahsulotlari (obi non, yog‘li patir va h.k.)**	1 o‘rin/kunga	8000	6500	6500	5500	5500
1.14.	Uyda tayyorlangan konservalangan mahsulotlar, pazandalik mahsulotlari va uy sharoitida tayyorlangan qandolatchilik mahsulotlari	1 o‘rin/kunga	9000	8000	8000	7000	6500
	hasib, xonim, somsa, baliq va h.k.	1 o‘rin/kunga	10000	8500	8000	7000	6500
1.15.	Sanoat yo‘li bilan ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlari va salqin ichimliklar	1 o‘rin/kunga	12000	10000	9500	9000	8500
1.16.	Milliy taomlar	1 o‘rin/kunga	14000	9000	9000	8000	7500
1.17.	Polietilen va qog‘oz paketlar, savatlar va posilka qutilari	1 o‘rin/kunga	9000	7000	6500	5500	5500
1.18.	Supurgi, isiriq va h.k.	1 o‘rin/kunga	8000	7000	6500	5500	5500
1.19.	Tirik baliq (baliq mahsulotlari)	1 o‘rin/kunga	13000	11000	11000	10000	9500
1.20.	Asal	1 o‘rin/kunga	9000	7000	6500	5500	5500
1.21.	Muzqaymoq sotish	1 o‘rin/kunga	11000	7000	6500	6000	5500
1.22.	Nosvoy	1 o‘rin/kunga	15000	10000	9500	8500	8000

1.23.	**Xalq ijodkorligi, xalq hunarmandchiligi va kosibchilik mahsulotlari (o‘roq, bolg‘a, ketmon, bolta, tesha, beshik, o‘qlov, andava, randa, arra, arqon, kosibchilik mahsulotlari va boshqa) 6 kv.metrgacha**	1 o‘rin/kunga	8000	7000	7000	6500	6000
	Milliy kiyimlar: (to‘n,do’ppi,belbog‘ va h.k)	1 o‘rin/kunga	10000	8000	7500	6000	6000
2.	**Go‘sht mahsulotlari: mol, qo‘y, cho‘chqa, parranda go‘shti, jigar, dumba va h.k.**	1 o‘rin/kunga	25000	20000	19500	17500	17000
	submahsulotlar (kalla-pochcha, ichak va h.k.)	1 o‘rin/kunga	14000	10500	10000	9500	9000
3.	**Mahsulotlarni avtotransportlardan sotish:**						
	yengil avtotransportlardan	1 mashina	20000	16500	16000	14000	13000
	yuk avtotransportlardan	1 mashina	27000	22000	21000	20000	19000
	tirkamali, yarim tirkamali yuk avtotransportlari va avtopoyezdlardan	1 mashina	27000	22000	21000	20000	19000
	mahsulotlarni yerdan sotish (savdo rastalaridan tashqarida maxsus ajratilgan joylarda), (6 kv.metrgacha)	1 o‘rin/kunga	17000	11000	11000	9000	8500
4.	**Uy hayvonlari uchun yem-ozuqalar (har bir tirkama yoki yuk avtotransporti uchun): shrot, sheluxa, kombikorma, pichan, somon, makkajo‘xori poyasi va h.k.**	1 mashina	24000	23000	22000	21000	21000
5.	**Nooziq-ovqat mahsulotlari**						
	Kiyim-kechaklar, gazlamalar, attorlik va poyabzal mahsulotlari, uy-ruzg‘or, maishiy va ta'mirlash buyumlari va boshqalar	1 o‘rin/kunga	14000	11500	11500	11000	11000
	Ehtiyot qismlar, elektro tovarlar, har-xil jihozlar (kabel, elektr va gaz hisoblagich, gayka, bolt, gaz plita ehtiyot qismlari, shlanglar va boshqalar)	1 o‘rin/kunga	17000	11000	11000	11000	10500

Izoh:

1. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va xalq iste'mol mollari bilan savdo qilinganda, bir joy (savdo o‘rni) o‘lchami 1-1,2 pogon metr deb belgilanadi va shu o‘lchamdan ortiq o‘rin uchun qushimcha ravishda xar bir savdo o‘rni uchun belgilangan to‘lov miqdorida joy xaqi undiriladi.

2. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va xalq iste'moli mollari aralash holda sotilganda, to‘lov sotiladigan mahsulot turlari bo‘yicha belgilangan eng yuqori stavka bo‘yicha undiriladi.

Jizzax viloyat hokimining
2024-yil 28-fevraldagi
125-3-0-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Viloyatdagi bozorlar va savdo komplekslari ma’muriyati tomonidan undirib olinadigan bir martalik yig‘imlarning miqdorlari

so‘m hisobida

T/r	Mahsulot turlari	O‘lchov birligi	2024-yil olinadigan to‘lovlar				
			Jizzax shahri	G‘allaorol tumani	Do‘stlik, Zarbdor, Zafarobod, Zomin, Mirzacho‘l, Paxtakor, Forish va Sharof Rashidov tumanlari	Baxmal va Yangiobod tumanlari	Arnasoy tumani
1.	**Avtotransport vositalarini sotish**						
1.1.	O‘zbekiston va xorij davlatlarida ishlab chiqarilgan yengil avtomobillar	1 dona	32 000	31 000	30 000	28 000	27 000
	Vaz, Uaz, Moskvich, Gaz-24, Gaz-31 va boshqalar	1 dona	27 000	26 000	25 000	22 000	20 000
	yuk avtotransportlari, avtobuslar, traktorlar va boshqa yuk ko‘taruvchi transport vositalari	1 dona	37 000	36 000	35 000	34 000	33 000
	mototsikl, motorollerlar va mopedlar	1 dona	12 000	10 500	10 000	9 000	9 000
	velosipedlar	1 dona	9 000	7 500	7 000	6 000	6 000
1.2.	**Ilgari foydalanishda bo‘lgan ehtiyot qismlarni sotish: (transport vositalari uchun ehtiyot qismlar)**						
	Avtotransportlar va qishloq xo‘jaligi texnikalari uchun ehtiyot qismlar	1 o‘rin/kunga	16 000	11 000	11 000	9 000	9 000
	Uy-ro‘zg‘or jihoz buyumlari va kiyim-kechaklar	1 o‘rin/kunga	10 000	8 000	8 000	7 000	7 000
	San-texnika mahsulotlari, elektro tovarlar va boshqalar	1 o‘rin/kunga	16 000	11 000	10 500	8 500	8 500
2.	**Mol bozori shoxobchalariga olib kiriladigan har bir bosh chorva mollari uchun:**						

2.1.	**Ot, toy, tuya**	1 bosh	35 000	34 000	33 000	32 000	31 000
	Bo‘taloq, eshak	1 bosh	20 000	19 000	18 000	17 000	16 000
2.2.	**Yirik shoxli qoramol**						
	Sigir buzog‘i bilan	1 bosh	40 000	39 000	38 000	37 000	36 000
	Qoramol	1 bosh	35 000	34 000	33 000	32 000	31 000
	Buzoq (6 oygacha)	1 bosh	25 000	24 000	23 000	22 000	21 000
2.3.	**Mayda shoxli qoramol**	1 bosh					
	Qo‘y	1 bosh	25 000	24 000	23 000	22 000	21 000
	Echki	1 bosh	20 000	19 000	19 000	18 000	18 000
	Qo‘zi	1 bosh	18 000	17 000	17 000	16 000	16 000
	Uloq	1 bosh	15 000	14 000	14 000	13 000	13 000
	Qo‘y qo‘zisi bilan	1 bosh	28 000	27 000	27 000	26 000	26 000
	Echki ulog‘i bilan	1 bosh	23 000	22 000	22 000	21 000	21 000
2.4.	**Cho‘chqa**	1 bosh	13 000	12 000	12 000	11 000	11 000
	Cho‘chqa bolasi	1 bosh	10 000	9 000	9 000	8 000	8 000
2.5.	**Uy parrandalari: kurka,tovuq, o‘rdak, g‘oz, quyon**	1 bosh	6 000	5 000	5 000	4 500	4 500
	tovuq, kurka, o‘rdak, g‘oz jo‘jalari	10 bosh	5 000	5 000	4 000	4 000	4 000
2.6.	**Itlar va mushuklar**	1 o‘rin/kunga	6 000	4 000	4 000	3 500	3 500
2.7.	**Itlar, mushuklar, manzarali qushlar va baliqlar, shuningdek ularning ozuqalari va tegishli aksessuarlar va buyumlar**	1 o‘rin/kunga	4 000	3 000	3 000	2 500	2 500
2.8.	**Itlar, mushuklar, manzarali qushlar va baliqlar, shuningdek ularning ozuqalari va tegishli aksessuarlar va buyumlar bir joyda**	1 o‘rin/kunga	7 000	4 000	4 000	3 500	3 500
3.	**Qurilish materiallarini sotish:**						

3.1.	**Bozorlar va savdo komplekslari tomonidan maxsus ajratilgan joylarda og‘ir va katta o‘lchamdagi qurilish materiallarini sotish:**						
	6 kv. metrgacha	1 o‘rin/kunga	13000	12 500	12 000	11 500	11 500
	6 dan - 15 kv. metrgacha	1 o‘rin/kunga	16000	15 500	15 000	11 000	10 500
	15 dan - 30 kv. metrgacha	1 o‘rin/kunga	21000	20 000	19 000	13 000	12 500
3.2.	**Kichik o‘lchamdagi qurilish materiallari (mayda o‘lchamli), santexnika, yoritish uskunalarini (lyustra, svetilniklar va h.k) sotish (6 kv. metrgacha)**	1 o‘rin/kunga	14000	13 000	12 500	10 500	10 500
4	**Bozorlar hududida joylashgan mulkdorlarga tegishli bino va inshoatlar oldida yerda qo‘shimcha tovarlar joylashtirib savdo faoliyatini amalga oshirganlik uchun to‘lov**	1 o‘rin/kunga	11000	9 000	9 000	8 500	8 500

Izox:

Savdo joyining maydoni 30 kv.metrdan oshganda har bir kv.m uchun 750 so‘m miqdorida to‘lov undiriladi.

Jizzax viloyat hokimining
2024-yil 28-fevraldagi
125-3-0-Q/24-son qaroriga
3-ilova

Viloyatdagi bozorlar va savdo komplekslarida inventarlarni ijaraga berish va ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun undiriladigan bir martalik to‘lov miqdorlari

so‘m hisobida

T/r	Mahsulot turlari	O‘lchov birligi	2024-yil olinadigan to‘lovlar				
			Jizzax shahri	G‘allaorol tumani	Do‘stlik, Zarbdor, Zafarobod, Zomin, Mirzacho‘l, Paxtakor, Forish va Sharof Rashidov tumanlari	Baxmal va Yangiobod tumanlari	Arnasoy tumani
1.	**Inventarlarni ijaraga berish:**						
1.1.	Tosh - tarozilar uchun	1 kunga	4000	3000	3000	2500	2500
1.2.	Katta yuk tortish tarozilari uchun						
	150 kg.gacha tortadigan	1 kunga	5000	4000	4000	3500	3500
	150 kg.dan - 1500 kg.gacha tortadigan	1 kunga	12000	9500	9500	8500	8500
1.3.	Savdo jihozlari uchun (bolta, taxtakach, pichoq, o‘rindiq, patnis, savat va h.k), (butun to‘plam uchun), (to‘plam savdo faoliyati turi zaruratidan kelib chiqqan holda aniqlanadi).	1 kunga	3500	3000	3000	2500	2500
1.4.	Maxsus ust-bosh kiyimlar uchun (xalat, etak, yenglik) (butun to‘plam uchun), (to‘plam savdo faoliyati turi zaruratidan kelib chiqqan holda aniqlanadi)	1 kunga	3000	1500	1500	1000	1000
1.5.	Mahsulotlar uchun brezent berish	1 kunga	4000	4000	3500	3500	3000
1.6.	Aravachalar uchun						
	Bozor hisobidagi yuk tashish aravachalarni ijaraga berilganligi uchun	1 kunga	8000	5500	5000	4500	4500
	Xususiy aravacha egalaridan bozor hududida yuk tashish xizmati uchun	1 kunga	8000	6500	6500	6000	5500
1.7.	Reklama joylashtirishga ajratilgan yer maydonidan foydalanganligi uchun (1 kv.m)	1 kunga	5000	4000	4000	3500	3500
2	**Ko‘rsatiladigan xizmat turlari**						
2.1.	Qishloq xo‘jalik va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash:						
	sovutgichlarda (har bir yashik, qop va h.k. uchun)	1 kunga	5000	3500	3500	3000	3000
	omborxonalarda, saqlash kameralarida (har bir yashik, qop va h.k. uchun)	1 kunga	5000	3500	3500	3000	3000
	bozor hududidagi rastalarda va ochiq joylarda (savdo o‘rni hisobidan)	1 kunga	3000	2500	2500	2000	2000
2.2.	Buyumlarni omborlarda saqlash (bir 50x50x100 o‘lchamdagi joy uchun)	1 kunga	4000	3500	3500	3000	3000
3.	**Avtotarozilardan foydalanish:**						
3.1.	yuk ko‘tarish quvvati 5 tonnadan ortiq bo‘lgan tirkamali, yarim tirkamali yuk avtotransportlari va avtopoyezdlardan						
	yuk bilan	1 marta o‘lchash	5000	3500	3500	3000	3000
	yuksiz	1 marta o‘lchash	4000	3500	3500	3000	3000
3.2.	yuk ko‘tarish quvvati 5 tonnagacha bo‘lgan tirkamali, yarim tirkamali yuk avtotransportlari						
	yuk bilan	1 marta o‘lchash	4000	3500	3500	3000	3000
	yuksiz	1 marta o‘lchash	4000	3500	3500	3000	3000
3.3.	Yengil avtotransportlardan						
	yuk bilan	1 marta o‘lchash	4000	2500	2500	2000	2000
	yuksiz	1 marta o‘lchash	3000	2500	2500	2000	2000
3.4.	Tirkamali yengil avtotoransportlari						
	yuk bilan	1 marta o‘lchash	4000	3500	3500	3000	3000
	yuksiz	1 marta o‘lchash	4000	3500	3500	3000	3000

4	**Avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash uchun:**						
	yuk avtomashinalar uchun	1 soatga	6000	5500	5500	4500	4500
	yengil avtomashinalar uchun	1 soatga	5000	4500	4500	3500	3500
4.1.	Avtoturargohga elektron kirib-chiqish tizimi tashkil etilgan bozorlar va savdo komplekslari uchun: (qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ortilgan avtomashinalar dehqon bozorlari hududiga kirganligi uchun xaq undirilmaydi. Asos: 22.06.2000 yil,VMning 239-son qarori)	Dastlabki 15 daqiqagacha bepul	Dastlabki 15 daqiqagacha bepul	Dastlabki 15 daqiqagacha bepul	Dastlabki 15 daqiqagacha bepul	Dastlabki 15 daqiqagacha bepul	Dastlabki 15 daqiqagacha bepul
	yuk avtomashinalar uchun	1 soatga	5000	5000	4500	4000	4000
		2 soatdan boshlab	1000	1000	500	500	500
	yengil avtomashinalar uchun	1 soatga	4000	4000	3500	3000	3000
		2 soatdan boshlab	1000	1000	500	500	500
5	**Transport vositalarini yuk ortish va tushirish uchun bozorlar va savdo komplekslari hududiga kirishi (qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ortilgan transport vositalari bundan mustasno)**						
	yuk avtotransportlar uchun	1 marta	6000	5000	5000	4500	4500
	yengil avtotransportlar uchun	1 marta	5000	4000	4000	3500	3500
	motorollerlar uchun	1 marta	4000	3000	3000	2500	2500
5.1	Transport vositalarini yuk ortish va tushirish uchun qurilish mollari savdo kompleksi hududiga kirishi						
	yuk avtotransportlar uchun	1 marta	17000	16500	16000	9000	8500
	Gazel, UAZ avtotransportlari uchun	1 marta	14000	13500	13000	8500	8000
	yengil avtotransportlar uchun	1 marta	10000	9500	9000	7000	6500
6.	**Poyabzal ta'mirlash xizmati (1 ta joy uchun)**	1 kunga	6000	5000	5000	4500	4500
7.	**Xojatxona xizmatidan foydalanish**	1 marta	2000	2000	2000	2000	2000
8.	**Telefondan foydalanish**	1 marta	1000	1000	1000	1000	1000
9.	**Radiouzel orqali e'lon berish**	(3 marta takror)	3000	2000	2000	1500	1500
10.	**Charxchilik**	1 kun	9000	6000	6000	4500	4500
11.	**Bozor balansida bo‘lgan ko‘chma savdo rastalarini ijaraga berish (3x1 o‘lchamda) 1 dona**	1 kun	6000	3500	3500	2500	2500

Jizzax viloyat hokimining
2024-yil 28-fevraldagi
125-3-0-Q/24-son qaroriga
4-ilova

Bozorlar va savdo komplekslari hududidagi bino, inshoot va boshqa mol-mulkdan hamda bozor infratuzilmasidan foydalanganlik uchun ijara to‘lovlarining miqdorlari

so‘m hisobida

T/r	Mahsulot turlari	O‘lchov birligi	2024-yil olinadigan to‘lovlar				
			Jizzax shahri	G‘allaorol tumani	Do‘stlik, Zarbdor, Zafarobod, Zomin, Mirzacho‘l, Paxtakor, Forish va Sharof Rashidov tumanlari	Baxmal va Yangiobod tumanlari	Arnasoy tumani
1.	**Bozorlar va savdo komplekslari balansidagi bino va inshoatlardan foydalanganlik uchun oylik to‘lov**						
	Nooziq ovqat mahsulotlari sotish	1 kv.m oyiga	33 000	28 000	27 000	17 500	17 000
	Oziq-ovqat mahsulotlari sotish	1 kv.m oyiga	28 000	25 000	24 000	18 000	17 000
	Umumiy ovqatlanish	1 kv.m oyiga	33 000	28 000	27 000	18 000	17 000
	Maishiy xizmat ko‘rsatish	1 kv.m oyiga	19 000	16 000	15 000	12 000	12 000
	Boshqa turlar (ombor, ofis, apteka, paynet)	1 kv.m oyiga	20000	15000	14000	10500	10000
	Kitob savdosi do‘konlaridan	1 kv.m oyiga	13000	11000	10000	9000	9000
2.	**Bozorlar va savdo komplekslari balansidagi bino va inshoatlarning ikkinchi va undan yuqori qavatlardan foydalanganlik uchun ijara to‘lovi**	1 kv.m oyiga	16 000	11 000	11 000	10 000	9 500
3.	**Bozorlar va savdo komplekslari hududida joylashgan mulkdorlarga tegishli bino va inshoatlar uchun oylik ijara to‘lovi**	1 kv.m oyiga	20 000	10 000	10 000	8 000	8 000
4.	**Bozorlar va savdo komplekslari hududida joylashgan mulkdorlarga tegishli bino va inshoatlarning ikki va undan yuqori qavati uchun oylik ijara to‘lovi**	1 kv.m oyiga	8 000	5 000	5 000	4 000	4 000

5.	**Qurilish mollari savdo kompleksi balansida bo‘lgan bino va inshoatlardan undiriladigan oylik ijara to‘lovi. Umumiy foydalaniladigan ob'ektlarni saqlash bo‘yicha ko‘rsatiladigan majburiy xizmatlar (asfaltlangan va bruschatka yotqizilgan yo‘laklar, trotuarlar, kirish va chiqish joylari, yer osti va yer usti kanalizatsiya lotoklari, ichki va tashqi yoritish tarmoqlari va inshootlari, ichimlik suvining sanitar-texnik bo‘g‘inlari, umumiy hududni qo‘riqlash va tozalash, maishiy va meva-sabzavot mahsulotlarining chiqindilarini yig‘ish va olib chiqish, tashqi muhandislik kommunikatsiya inshootlari).**	1 kv.m oyiga	20 000	19 500	19 000	13 000	12 500

Izoh:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-apreldagi PQ-1326 son "Dehqon bozorlari va savdo komplekslari faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qaroriga muvofiq ko‘rsatiladigan majburiy xizmatlar ro‘yxati va qiymati Jizzax viloyati hokimligi tomonidan tasdiqlanadi. Ushbu xizmatlar bozorlar va savdo komplekslari hududidagi bino va inshoatlar mulkdorlariga ko‘rsatiladi hamda ular uchun kadastr hujjatlarida ko‘rsatilgan egallangan yer maydonlaridan kelib chiqib, bozorlar va savdo komplekslari ma'muriyati bilan bino va inshoatlar mulkdorlari o‘rtasida tuziladigan shartnomaga muvofiq xaq to‘lanadi. Bunda maishiy va meva-sabzavot mahsulotlarining chiqindilarini yig‘ish va olib chiqish xizmatlari uchun bino va inshoatlari mulkdorlari tomonidan mazkur turdagi xizmatlarni ko‘rsatuvchi tashkilotlarga qo‘shimcha to‘lovlar amalga oshirilmaydi.

2. Bozorlar hududiga tutash joylashgan mulkdorlarga tegishli bino va inshoatlar egalari agarda bozor infratuzilmasidan foydalansa bozor ma'muriyati bilan shartnoma asosida to‘lovlarni amalga oshirish belgilansin.

3. Kunlik bozorlarda turg‘un savdo va xizmat ko‘rsatish shaxobchalaridan ijara to‘lovlar 1 (bir) oylik hisoblangan ijara summasi, shu oydagi bozor bo‘ladigan kunga bo‘linib, nechta bozori bo‘lsa, shuncha kunga ko‘paytirgan holda hisoblanib undiriladi.

Jizzax viloyat hokimining
2024-yil 28-fevraldagi
125-3-0-Q/24-son qaroriga
5-ilova

Jizzax viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan dehqon bozorlar va savdo komplekslar ro‘yxati, ish kunlari hamda dehqon bozorlarga qarashli mol bozorlar shaxobchalarining ish kunlari

№	Bozorlarning to‘liq nomi	Bozorlarning ish kunlari	Mol bozorlar shaxobchalari ish kunlari
1	**Jizzax shahrida**		
	"Markaziy dehqon bozori" AJ	Yakshanbadan tashqari har kuni	-
	"Eski shahar savdo kompleksi" AJ	Dushanbadan tashqari har kuni	-
	"Eski shahar dehqon bozori" MChJ	Dushanbadan tashqari har kuni	-
	"Kimyogar ehtiyot qismlari" MChj	Yakshanbadan tashqari har kuni	-
2	**Arnasoy tumanida**		
	"Arnasoy dehqon bozori" MChJ	Yakshanbadan tashqari har kuni	-
	"Ulmon ota dehqon bozori" MChJ	Haftaning seshanba kuni	Seshanba
3	**Baxmal tumanida**		
	"Baxmal dehqon bozori" MChJ	Haftaning yakshanba kuni	Yakshanba
	"Baxmal savdo kompleksi" MChJ	Haftaning yakshanba kuni	-
	"Chorshanba dehqon bozori" MChJ	Haftaning chorshanba kuni	Chorshanba
	"Payshanba dehqon bozori" MChJ	Haftaning payshanba kuni	Payshanba
4	**G‘allaorol tumanida**		
	"G‘allaorol dehqon bozori" MChJ	Dushanbadan tashqari har kuni	-
	"Sangzor savdo dehqon bozori" MChJ	Haftaning juma kuni	Juma
	"Payshanba dehqon bozori" MChJ	Haftaning payshanba kuni	Payshanba

	"Lalmikor dehqon bozori" MChJ	Dushanbadan tashqari har kuni	Yakshanba
5	**Do‘stlik tumanida**		
	"Do‘stlik dehqon bozori" MChJ	Dushanbadan tashqari har kuni	Yakshanba
6	**Zomin tumanida**		
	"Zomin dehqon bozori" MChJ	Dushanbadan tashqari har kuni	-
	"Duoba dehqon bozori" MChJ	Haftaning yakshanba kuni	Yakshanba
	"Atlas-shoyi-ipak savdo kompleksi" MChJ	Dushanbadan tashqari har kuni	-
	"Dashtobod dehqon bozori" MChJ	Yakshanbadan tashqari har kuni	Shanba
	"Pshog‘ar eko market bozori" MChJ	Haftaning juma kuni	Juma
7	**Zarbdor tumanida**		
	"Zarbdor dehqon bozori" MChJ	Dushanbadan tashqari har kuni	Chorshanba
8	**Mirzacho‘l tumanida**		
	"Mirzacho‘l dehqon bozori" MChJ	Yakshanbadan tashqari har kuni	Shanba
	"Ejar savdo kompleksi" MChJ	Yakshanbadan tashqari har kuni	-
9	**Paxtakor tumanida**		
	"Paxtakor dehqon bozori" MChJ	Dushanbadan tashqari har kuni	Chorshanba
	"Paxtakor savdo kompleksi" MChJ	Dushanbadan tashqari har kuni	-
10	**Forish tumanida**		
	"Forish dehqon bozori" MChJ	Shanbadan tashqari har kuni	-
	"Farxod dehqon bozori" MChJ	Haftaning shanba kuni	Shanba
11	**Yangiobod tumanida**		
	"Balandchaqir dehqon bozori" MChJ	Haftaning seshanba va chorshanba kunlari	Seshanba
12	**Jizzax tumanida**		

	"Uchtepa dehqon bozori" MChJ (Zarafshon va Bo‘ston mol bozorlari shaxobchalari)	Haftaning yakshanba kuni	Yakshanba
	"Jaxon osiyo mega trade" (Qurilish mollari bozori)	Seshanbadan tashqari har kuni	-
	"Avtobozor" MChJ	Haftaning yakshanba kuni	-